



# O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo`mitasi

## 2019-yilning yanvar-fevral oylarida QURILISH ISHLARI

### Raqamlar:

Jami qurilish ishlari hajmi –  
**5 312,0 mlrd. so`m**

O`tgan yilning mos davriga nisbatan –  
**106,3 %**

Nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar –  
**5 024,7 mlrd. so`m**

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar –  
**287,3 mlrd. so`m**

Joriy yilning yanvar - fevral oylarida O`zbekiston Respublikasida jami 5 312,0 mlrd. so`m qurilish ishlari bajarilgan bo`lib, o`shish sur`ati o`tgan yilning mos davriga nisbatan 106,3 % ni tashkil etdi.

Joriy davrda jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 874,5 mlrd. so`mni tashkil etdi.

O`tgan yilning mos davri bilan solishtirganda 7,8 % ga ko`p ishlar bajarilgan bo`lsa ham, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi o`tgan yildagi ko`rsatkich darajasida saqlanib qoldi - 16,5 %.

Yirik qurilish tashkilotlari




Kichik korxonalar va mikrofirmalar



Norasmiy sektor



O`tgan yilning mos davriga nisbatan, % da




Jami qurilish ishlaridagi ulushi, % da





Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi joriy davrda qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan keskin oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 54,8 %i to`g`ri kelib, o`tgan yilning mos davridagi ko`rsatkichga nisbatan 1,6 % punktga ko`paydi. Shuningdek, ular hissasiga to`g`ri kelgan qurilish ishlari hajmi o`tgan yilning mos davriga nisbatan 111,2 % ni tashkil etgan holda 2 911,7 mlrd. so`m miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektor hissasiga to`g`ri kelgan qurilish ishlari ulushi o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 1,6 % punktga kamayib, 28,7 % ni tashkil etdi va 1 525,8 mlrd. so`m miqdorida qayd etildi. O`tgan yilning mos davridagi hajm bilan solishtirganda 96,8 % ni tashkil etgani kuzatildi.




Shuni ta`kidlash lozimki, joriy davrda bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi **yangi bino va inshootlarni qurish** bo`yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining 73,8 %i yoki 3 918,0 mlrd. so`m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy soha obyektlarini yaratishga qaratilgan.

**Yirik qurilish tashkilotlari** tomonidan jami qurilish ishlarining 77,2 %i yoki 674,9 mlrd. so`m yangi qurilish ishlari bo`yicha bajarilgan.





**Norasmiy sektor** hissasiga jami qurilish ishlarining 86,9 %i yoki 1 326,4 mlrd. so`m yangi qurilish ishlariga to`g`ri keldi.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** tomonidan jami qurilish ishlarining 65,8 %i yoki 1 916,7 mlrd. so`m yangi qurilish ishlari bo`yicha bajarilgan.




## FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA QURILISH ISHLARI




70,4 %

Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlarining ulushi jami qurilish ishlari hajmida 70,4 % ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 3,0 % punktga kamaydi.



16,2 %

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 16,2 % to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 1,4 % punktga ko'paydi.



13,4 %

Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 13,4 % ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,6 % punktga ko'paydi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi 8,9 % ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,9 % punktga kamaydi.


Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 2,5 % punktga ko'payib,

51,0 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,6 % punktga kamayib, 40,1 % ni tashkil etdi.

### Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)




Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 48,8 % ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 2,1 % punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 47,6 % (1,6 % punktga kamayish) va norasmiy sektorning ulushi 3,6 % ni (0,5 % punktga kamayish) tashkil etdi.


## Fuqarolik obyektlarini qurish bo`yicha qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)



## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 2,1 % punktga ko'paydi va 22,4 % ni tashkil etdi. Qolgan 77,6 % kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 2,1 % punktga kamaydi.


### 2019-yil yanvar-fevral oylarida hududlar kesimida qurilish ishlari

	Jami qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Jamiga nisbatan, % da	O'sish sur'ati, % da	Jamidan yangi qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>5312,0</b>	<b>100,0</b>	<b>106,3</b>	<b>3918,0</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	314,7	5,9	101,5	232,1
<i>viloyatlar:</i>				
Andijon	356,4	6,7	104,2	240,6
Buxoro	284,3	5,4	101,9	162,0
Jizzax	194,4	3,7	108,4	152,8
Qashqadaryo	484,1	9,1	111,3	333,5
Navoiy	268,1	5,0	101,2	207,1
Namangan	282,6	5,3	106,2	206,6
Samarqand	373,2	7,0	106,1	302,8
Surxondaryo	266,2	5,0	111,0	215,3
Sirdaryo	104,0	2,0	105,1	69,4
Toshkent	392,6	7,4	102,2	322,5
Farg'ona	439,0	8,3	105,3	332,2
Xorazm	266,0	5,0	103,5	204,4
Toshkent sh.	1272,8	24,0	106,7	923,3

Hududlar bo'yicha qurilish ishlari tarkibida Toshkent shahri qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan ishlar Respublika bo'yicha jami hajmning 24 % ini tashkil etdi. Bu 1 272,8 mlrd. so'm qurilish ishlari demakdir. Bunday katta hajmdagi qurilish ishlari Respublika bo'yicha eng yirik qurilish tashkilotlarining hamda ko'plab kichik qurilish korxonalari va mikrofirmalarni Toshkent shahrida joylashgani bilan izohlanadi.

Shu bilan birga mazkur hududda olib borilayotgan keng ko'lamli qurilish ishlari, jumladan, metro liniyalari, "Tashkent City" xalqaro ishbiarmonlik markazi, davlat dasturlari doirasida va boshqa sotish uchun mo'ljallangan ko'plab turar-joylarning qurilishi jadal olib borilayotganligi mazkur hududdagi qurilish ishlari hajmining katta bo'lishiga sabab bo'lmoqda.

### Jami qurilish ishlarida hududlarning ulushi (jamiga nisbatan, % da)




Qurilish ishlarining hududlar kesimida eng yuqori o`shish sur`ati **Qashqadaryo viloyatida** (111,3 %) kuzatildi:

- “Qashqadaryo neft-gaz qurilish va ta'mirlash” AJ tomonidan Qarshi shahar “Vatanparvar” bog`ida qurilish rekonstruksiya ishlari bajarilgan;
- “Koson neft-gaz qidiruv ekspeditsiyasi” sho`ba korxonasi, hamda “Neft va gaz quduqlarini sinash” AJ tomonidan qidiruv burg`ulash ishlari amalga oshirilmoqda;
- “Xisorakgidroqurilish” MChJ tomonidan suv ombori, kanal qurilishi amalga oshirilmoqda.

**Surxondaryo viloyatidagi** (111,0 %) yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining oshishiga:

- To'palang suv omborida “ZARCHOP” kichik GES-1,2 qurilishi;
- Katta Farg`ona kanalida kichik GES qurilishi;
- “Qiyabo`g`iz” suv omborida kichik GES qurilishi;
- Qidiruv burg`ulash ishlarining bajarilishi;
- Sement zavodida qurilish ishlari asos bo`ldi.

### Hududlar bo`yicha qurilish ishlarining o`shish sur`atlari (o`tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)








Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining hududlar bo'yicha tarkibida Toshkent shahri (hududdagi jami qurilish hajmining 30,9 %i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 106,6 %), Navoiy (mos ravishda, 28,0 % va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 103,3 %), Buxoro (mos ravishda, 22,4 % va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 83,2 %) va Qashqadaryo viloyatlari (mos ravishda, 22,0 % va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 191,0 %) yetakchilik qilmoqda.

nisbatan 83,2 %) va Qashqadaryo viloyatlari (mos ravishda, 22,0 % va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 191,0 %) yetakchilik qilmoqda.

### Hududlar kesimida qurilish ishlari







Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng kam ulushi Samarqand (hududdagi jami qurilish hajmining 1,5 %i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 107,3 %), Sirdaryo (mos ravishda, 1,9 % va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 84,1 %) va Jizzax viloyatlarida (mos ravishda, 2,1 % va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,5

marta ko'paygan) kuzatildi.

## Faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari

2019 yil yanvar - fevral oylarida





Binolar va inshootlar qurilishi bo'yicha Navoiy (jami hajmdan 86 %), Xorazm (82 %) va Toshkent (85 %) viloyatlari yetakchilik qilmoqda.

Fuqarolik obyektlari qurilishida Surxondaryo viloyati (25 %), Toshkent shahri (22 %) va Buxoro (18 %) viloyatida yuqori ko'rsatkichlar qayd etilgan bo'lsa, ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari bo'yicha Farg'ona (30 %), Buxoro (28 %) hamda Namangan (21 %) viloyatlarida yuqori ko'rsatkichlar kuzatildi.



O'zbekiston Respublikasi  
Davlat statistika qo'mitasi

Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
boshqarmasi

Nashr uchun mas'ul:  
Aloqa telefoni:

J.Saipov  
(71) 230-80-56